

QASHQADARYO VILOYATI GEOGRAFIK O'RNINING GEOGRAFIK JIHATLARI

Murodova D.S - Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston.

***Annotatsiya:** Maqolada Qashqadaryo viloyati tabiiy va iqtisodiy geografik o'rniga baho berilgan. Qashqadaryo viloyatining siyosiy ma'muriy tuzilishi va ma'muriy hududiy birliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qashqadaryo viloyatining chegaralari geografik jihatdan tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Tabiiy, iqtisodiy, siyosiy geografik o'rni. Mikro, mezo makro darajadagi geografik o'rin. Ma'muriy-hududiy tuzilishi. Tarixiy rivojlanish bosqichlari, qadimgi inson manzilgohlari, qadimgi davlatlar, o'lka tabiati, aholisi va xo'jaligining o'rganilish tarixi, yangi davr tadqiqotlari.*

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

**Муродова Д.С - Преподаватель Каршинского государственного университета.
Узбекистан.**

***Аннотация:** В статье дана оценка природно-географического положения Кашкадарьинской области. Приведены сведения о политико-административном устройстве и административно-территориальном делении Кашкадарьинской области. Проведен географический анализ границ Кашкадарьинской области.*

***Ключевые слова:** Природное, экономическое, политико-географическое положение. Географическое положение на микро-, мезо- и макроуровнях. Административно-территориальное устройство. Этапы исторического развития, древние поселения человека, античные государства, история изучения природы региона, его населения и хозяйства, современные исследования.*

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE GEOGRAPHICAL LOCATION OF KASHKADARYA REGION

Murodova D.S. - Teacher of Karshi State University. Uzbekistan.

***Abstract:** The article assesses the natural and economic geographical location of the Kashkadarya region. Information is provided about the political-administrative structure and administrative territorial units of the Kashkadarya region. The borders of the Kashkadarya region are analyzed geographically.*

Keywords: *Natural, economic, political geographical location. Geographical location at the micro, meso-macro levels. Administrative-territorial structure. Stages of historical development, ancient human settlements, ancient states, the history of the study of the nature of the region, its population and economy, modern research.*

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatining biridir.

Qashqadaryo viloyati 1943 yil 20 yanvarda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 28,6 ming km² bo'lib, u iqtisodiy rayon hududining 58,7, O'zbekiston Respublikasining 6,4 % ga barobar.

Viloyatda 18 ta QFY va 751 ta MFY joylashgan va ularning hududida 3560,6 ming aholi istiqomat qiladi, aholi zichligi 1kv.km.ga 124,6 kishiga to'g'ri keladi. Viloyatda mamlakat aholisining 9,7 % ga yaqini, iqtisodiy rayonning esa 55,5 % yashaydi.

Hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida bir necha bekliklar bo'lib, ular 1920 yil sentyabr oyiga qadar Buxoro amirligi tarkibida edi. Buxoro respublikasi tuzilgach, hozirgi Qashqadaryo hududi alohida viloyat maqomida shu respublika tarkibiga kirdi. 1924 yil 12 iyulda "O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish to'g'risida" gi qaroriga asosan shu yilning birinchi noyabrida O'zbekiston tarkibida markazi Qarshi shahri bo'lgan Qashqadaryo viloyati tashkil topdi. 1927 yilda Qashqadaryo viloyati okrug sifatida Buxoro viloyati tarkibiga kirdi. 1943 yil 22 yanvarda alohida viloyat sifatida tiklandi. Ma'muriy hududiy bo'linishdagi mavjud tabiiy iqlim va mehnat resurslarini hisobga olmaslik oqibatidagi xatolar natijasida 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo o'z hududidan kichik Surxandaryo viloyatiga birlashtirildi. Sug'orma dehqonchilikka yaroqli katta yer fondiga ega bo'lishi, yer osti boyliklari va juda katta mehnat resurslari kabi imkoniyatlar viloyatni qayta tiklashni kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston

hukumati buni hisobga olib, 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatini avvalgi chegaralarida qayta tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati ma'muriy hududiy tarkibi bo'yicha 2 ta viloyatga bo'ysunuvchi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, G'uzor, Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Koson, Kitob, Kasbi, Mirishkor, Muborak, Nishon, Ko'kdala, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog'. Ma'muriy markazi-Qarshi shahri. Aholisi 295,6 ming kishi.

1-jadval


Qashqadaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

	Hududi (ming km²)	Tumalar	Jami shaharl ar	shu jumlada n, respublik a va viloyat bo'ysunu vidagi	Shaharchala r	Qishloq fuqarola ri yig'inlari	Qishloq aholi punktlari
	(2024 yil 1 yanvar holatiga)						
Qashqadaryo viloyati	28,57	14	12	2	117	18	1042
Qarshi sh.	0,08		1	1	1	0	
Shahrisabz sh.	0,05		1	1		0	
<i>tumanlar:</i>							
G'uzor	2,66	1	1		5	0	80
Dehqonobod	4,00	1	0		3	3	106
Qamashi	2,66	1	1		5	0	115
Qarshi t	0,91	1	1		15	4	73
Koson	1,88	1	1		14	0	66
Kitob	1,75	1	1		13	1	144
Mirishkor	3,21	1	0		3	7	22
Muborak	3,07	1	1		5	0	15
Nishon	2,11	1	2		9	2	30
Kasbi	0,65	1	0		9	1	49
Ko'kdala	1,71	1			3		55
Chiroqchi	1,13	1	1		5	0	72
Shahrisabz t	1,62	1	0		13	0	101
Yakkabog'	1,10	1	1		14	0	114

Manba. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan olingan

Qashqadaryo viloyati respublika mehnat taqsimotida eng avvalo neft va tabiiy gaz qazib olish, gaz-kimyoy, yengil sanoat tarmoqlari hamda paxta, g'alla va chorva mahsulotlari yetishtirish bilan ajralib turadi. Uning zimmasiga O'zbekistonning 6,4 % yalpi ichki mahsuloti, 8,3% sanoat va 7,2% qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida, shu nomli daryo havzasida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo deb yuritiluvchi yirik tabiiy geografik o'lkaning markazidan sal janubroqda 37 gr 58 bilan 39 gr 32 sh.k. va 64 gr 23 bilan 67 gr 42 sh.u.lar orasidagi hududni ishg'ol etadi.



1-karta.Qashqadaryo viloyati siyosiy-ma'muriy xaritasi

U shimoli-g'arbda Buxoro, shimolda Samarqand va qisqaroq masofada Navoiy viloyatlari, janub va janubi-sharqda Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy mavqei, shuningdek, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan ham tavsiflanadi.

Viloyat Qashqadaryo havzasida va Pomir Oloy tog'larining g'arbiy chekkasida joylashgan. Hududining ko'pchilik qismi tekislik, shimoli-sharqida Kitob-Shahrisabz tekisligi, Qashqadaryoning g'arbida G'uzor tekisligi, shimoli-

g'arbda Qarshi cho'li, janubda Nishon cho'li va janubi-g'arbda Sandikli qum cho'lidan iborat.

Tekislik shimoli-sharqqa tomon ko'tarila borib, tog'lar orasidagi Kitob-Shahrisabz botig'ini hosil qiladi. Shimoli-sharq va janubi-sharqdan cho'llarni Zarafshon (Qoratepa, Chaqilkalon tog'lari) va Hisor tizmalarining tarmoqlari (Osmontarosh, Shertog', Yakkabog', Eshakmaydon, Ko'kbuloq, Chaqchar, Qorasirt, Dehqonobod tog'lari o'rab turadi).

Viloyatning shimoli-sharqida Kitob-Qamashi tekisligi joylashgan, shimolda Zarafshon va janubi-sharqda Hisor tizmalarining adirlari o'rab turadi. Viloyatning tog'lik va tog' oldi rayonlarida turli xil foydali qazilmalar topilgan.

Geografik o'rni jihatidan Qashqadaryo viloyati hududi Turkmaniston Respublikasining Atrek-Sumbar vodiysi, Ozarbayjonning Lenkoran pasttekisligi, Armaniston Respublikasi hamda Turkiya, Gretsiya, Italiya va Ispaniyaning o'rta mintaqasi, Amerika Qo'shma shtatlari va Yaponiyaning o'rta qismlari bilan bir xil geografik kenglikda yotadi. Viloyat hududi butun O'zbekiston kabi to'rtinchi soat mintaqasida joylashgan bo'lib, Tokiodan 5, Pekindan 4, Olma-otadan 1 soat keyin, Moskva va Anqaradan 2, Berlin, Parij va Madriddan 3, Londondan 4, Nyu-York, Vashington va Ottavadan 8 hamda San-Frantsisko va Sietl shaharlaridan 12 soat oldin sutka boshlanadi.

Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming kv.km bo'lib, hududining kattaligi bo'yicha O'zbekistonda Qoraqalpog'iston Respublikasi (164,9 ming kv.km), Navoiy (110,8) va Buxoro (39,4) viloyatlardan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. O'zbekiston Respublikasi maydonining atigi 7% ini egallagan holda Qashqadaryo viloyati maydoniga ko'ra Albaniya (28,7 minglari yoki Armaniston (29,8), Qrim Respublikalari (26,0) kv.km), Belgiya (30,5), Niderlandiya (32,4) kabi Yevropa davlat maydoni bilan tenglasha oladi.

Qashqadaryo viloyati 795 km uzunlikdagi chegaraga ega, shundan 405 km tog'lar, 390 km tekisliklar orqali o'tadi. G'arbdan sharqqa 293 km, shimoldan janubga 195 km masofaga cho'zilgan. Shimolda Qashqadaryo viloyatining Samarqand viloyati bilan chegarasi Zarafshon tizmasining Chaqilkalon, Qoratepa,

Ziyovuddin-Zirabiloq tog'lari va ular orasidagi Jom va Qarnob cho'lining to'lqinsimon tekisliklari orqali o'tadi. Sharqda Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan Hisor tizmasi orqali chegaradosh. Sharqda shuningdek Surxondaryo viloyati bilan ham chegaradosh bo'lib, sarhad chizig'i respublikaning eng baland tog'i Hisor tizmasining qirrasi, uning tarmoqlari Chaqchar va Boysuntog' suvayirg'ichi, so'ngra janubi-g'arbda Sho'rob botig'i, Suvsiztog' va Qo'hitangning qirrasi bo'ylab o'tadi. Qashqadaryo viloyati Turkmaniston Respublikasi bilan eng uzun chegaraga ega. Ko'xitangning g'arbdagi davomi bo'lgan Dehqonobod past tog'lari, janubda Nishon adirlari-Saksondara, Oloviddintog' va Qarshi qiya tekisligi, Sandikli qum cho'li, Qashqadaryo va Chorjev viloyatlari sarhadlarini bir-biri bilan tutashtiradi. Qarshi dashtining Dengizko'l, Jarqoq, Setalantepa qirlari va Qarnob cho'li kabi g'arbdagi yerlari Buxoro va so'ng Navoiy viloyatlariga kirib boradi.

Qashqadaryo viloyati Turkmaniston va Tojikiston davlatlari bilan chegaradosh, umumiy davlat chegarasi 313,2 km bo'lib, ulardan Turkmaniston Respublikasi bilan 253,3 km, Tojikiston Respublikasi bilan 59,9 km. Qashqadaryo viloyati Samarqand viloyati bilan (276 km), Buxoro viloyati bilan (98,3 km), Navoiy viloyati bilan (12,5 km), Surxondaryo viloyati bilan (193,8 km), Tojikiston Respublikasi bilan (59,9 km) va Turkmaniston Respublikasi bilan (253,3 km) chegaralanadi.

Qashqadaryo viloyatining qo'shni davlatlar bilan chegaradosh hududlari (jami 313,2 km) haqida. Qashqadaryo viloyati Turkmaniston Respublikasi bilan jami 253,3 km chegaradosh. Shundan, Nishon tumani 75,7 km chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati Turkmanboshi e'tirofi tumani bilan;

Dehqonobod tumani 75,9 km, chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati Chorshanbe va Do'stlik tumanlari bilan;

Mirishkor tumani 79,5 km, chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati Xo'janbas tumani bilan;

G'uzor tumani 22,2 km, chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Chorjo'v viloyati Davlatli tumani Sardoba jamoa xo'jaligi Chordul qishlog'i bilan chegaradosh hisoblanadi.

Shuningdek, viloyat Tojikiston Respublikasi bilan jami 59,9 km chegaradosh. Shundan, Shahrisabz tumanining 18,5 km chegara hududi Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati Panjikent tumani Pog'ich va Mag'yon qishloqlari bilan, Kitob tumanining 41,4 km chegara hududi Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati Panjikent tumani bilan chegaradosh.

Qarshi cho'lini o'zlashtirishda start maydonchasi vazifasini o'tash maqsadida barpo etilgan Talimarjon shahrining nomi asli Turkmanistondagi temir yo'l bekating nomidir. Qarshi bosh kanali va uning asosiy ob'ektlari shu qo'shni respublika hududida joylashgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari respublikaning janubiy hududi deb yuritiladi. Qarshi shahridagi neft va gaz konlarini qidiruvchi va ishga tushuruvchi idora butun respublika hududidagi shunday ishlarning bosh mutasaddisidir. Bundan 2000 yil oldin qazilgan Manas (Eski Anhor, Moskva nomli) arig'i Samarqand viloyatidagi Darg'om anhorining janubdagi tarmog'idir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyatining geografik o'rni bu hududda faqat O'zbekiston va O'rta osiyoga xos tabiat majmualarinigina emas, balki Markaziy Osiyo, Sibir, sharqiy Yevropa, Kavkazorti, Kichik Osiyo, O'rtadengiz bo'yi, Eron, Afg'oniston, Hindistonga xos o'simlik va hayvonot vakillarini tarqalishiga ham sabab bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Oquv qo'llanma. Qarshi-1994 yil
2. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. – T; "Universitet", 2014 yil
3. M.Nazarov, D.S.Murodova. Qashqadaryo viloyati tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. Nasaf nashriyoti. Qarshi, 2022 y
4. Murodova D.S. Boymurodov S. Городские резиденции Кашкадарьинской области и изменения их местоположения. "Экономика и социум" №5(96) 2022. с/535-545
5. Murodova D.S. Основные особенности демографической ситуации в Кашкадарьинской области. Экономика и социум" 1 (92) 2022. с/ 72-78
6. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) // Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.

7. Qurbonov P. R. Iqlim o'zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 210-214.
8. Qurbonov P. R., Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlari //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 357-362.